




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrlil ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrlil ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA IMOM G‘AZZOLIY
HIKMATLARINING O‘RNI

THE ROLE OF IMAM GHAZALI'S WISDOM IN TAHIR MALIK'S “THE
PROPERTY OF HUMANITY”

Nargiza UMURZAQOVA,

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YBKW3926

Annotation. *This article analyzes the role of Imam al-Ghazali's wisdom in Tohir Malik's novel Odamiylik mulki (“The Realm of Humanity”). The study highlights the artistic depiction of moral virtues such as patience, gratitude, honesty, and compassion, which are based on al-Ghazali's teachings. Through examples taken from the work, the educational significance of these moral principles is revealed.*

Key words. *Tohir Malik, Odamiylik mulki, Imam al-Ghazali, wisdom, ethics, patience, gratitude, honesty, Sufism, spirituality.*

“Odamiylik mulki” – muallif tomonidan insoniy fazilatlar va tarbiya mohiyatini chuqur ochib beruvchi asar bo‘lib, unda ko‘plab mumtoz adabiyoti namoyondalari, din arboblarning hikmatli so‘zlaridan o‘rinli foydalanilgan. Ayniqsa, Imom G‘azzoliy hikmatlari asosida muallif insoniylik mohiyatini keskin dalillar asosida tahlilga tortgan va kitobxonga asar maqsadi va mohiyatini tushungan holda mutolaaga berilishga chorlagan. Mazkur maqolada asarda G‘azzoliy ta’limotining o‘rni, uning hikmatlarining inson ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni, asarda ruhiy tarbiya vositasi sifatida foydalanilganligi xususida so‘z yuritiladi.

O‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Tohir Malikning asarlarida inson qalbi va ma’naviyati masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Uning “Odamiylik mulki” asari insoniy fazilatlarini ulug‘lash, jamiyatdagi ma’naviy inqirozga qarshi kurash, halollik va poklikni targ‘ib etish maqsadida yaratilgan. Asarda muallif o‘quvchini chuqur falsafiy mulohazalarga chorlaydi. Bu chorlov tasavvuf olamining yirik namoyondasi Imom G‘azzoliy hikmatlari bilan mustahkamlangan.

Imom G‘azzoliy Eronning Tus qishlog‘ida 1058-yilda tug‘ilib, shu yerda 1111-yili vafot etgan. Otalari-Muhammad al-G‘azzoliy. Imom G‘azzoliy Nishopur shahrida ash’ariy ulamo Juvayniy qo‘lida tahsil ko‘rdi. Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk huzurida Bag‘dodda xizmat qildi, Nizomiya madrasasida faqih-mudarris sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Ismoililar Nizomulmulkni o‘ldirganidan so‘ng haj bahonasida Bag‘dodni tark etib, Damashqda 11 yil yashadi. Keyinchalik Nizomulmulk o‘g‘li Faxrulmulk taklifi bilan yana Nizomiya madrasasida mudarrislik qildi. U kishining zamondoshlari “Hujjatul islom” deb ulug‘lashgan.

Imom G‘azzoliy Sharqning dunyoga mashhur mutafakkirlaridan, Kalom ilmi, fiqh, tafsir, hadis, falsafa va tasavvuf masalalari bo‘yicha bir nechta jahonshumul ahamiyatga ega kitoblar muallifi. U o‘z asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Sunniylik aqidalarini tasavvuf ideallari bilan birga qo‘shib talqin qilgan. G‘azzoliyning fikricha, insonning Alloh buyurgan amallardan o‘ziga maqbulini tanlab olishi o‘z ixtiyoridadir, shu bois mazkur xatti-harakatlari oldindan belgilab qo‘yilishiga qaramay ular uchun aynan insonning o‘zi mas’uldir. G‘azzoliyning diniy tizimi tasavvufni an’anaviy islom bilan birlashtirdi. G‘azzoliy g‘oyalari islom tafakkuriga va o‘rta asr Yevropa falsafasiga ta’sir ko‘rsatdi.

Uning falsafa va tasavvufga oid asarlari juda yorqin, ravon va tushunarli uslubda yozgan. Jumladan, Fiqhga doir “Bosit”, “Vojiz”, “Vosit”, Aqidaga doir “Qavoid al-Aqid” (“Aqidalarning qoidalari”), “ar-Risolat al-qudsiya” (“Qudsiya risolasi”), Mutasavviflar uchun “Ihya ulum ad-din”

(“Diniy ilmlarni tiriltirish”), “Mukoshafat ul-qulub” (“Qalblar kashfiyoti”) asarlari mashhur. Shuningdek, “Tahofut al-falasifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyo-i-saodat” (“Saodat kimyosi”), “Maqosid al-falasifa” (“Faylasuflarning maqsadlari”) kabi asarlar olim ijodida muayyan o‘rin egallaydi.

Bulardan tashqari “Ey farzan” “Oxiratnoma” “Qiyomat va Oxirat” “Qirq hadisi qudsiy” “Til ofatlari” Uylanish odobi” “Hidoyatning boshlanishi kabi asarlar Imom G‘azzoliyning eng mashhur asarlari hisoblanadi.

Imom G‘azzoliyning asarlari 1145-yildan boshlab Yevropa tillarida tarjima qilina boshlangan. “Odamiylik mulki”da G‘azzoliy hikmatlaridan muallif sabr, shukr, halollik, mehr-muhabbat va insoniy mas’uliyat g‘oyalarini tarqatib qilishda keng foydalangan.

Biz ushbu mavzuni yoritishda Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarining 2018-yil “Sano standart” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan 3 ta kitobdan iborat nashridan foydalandik. Jami ushbu asarda Imom G‘azzoliy hikmatlaridan 49 o‘rinda muallif fikrini dalillash maqsadida va 17 o‘rinda qo‘shimcha dars sifatida namunalar keltiriladi.

Ushbu tahliliy ma’lumotlarni quyida jadval asosida yoritishga harakat qildik:

№	“Odamiylik mulki” asarining 1,2,3-fasli	Asarda qo‘llanilish maqsadi	Asarda nechi o‘rinda qo‘llangan va soni
1.	1-Kitob Ishq fasli	Muallifning fikrini dalillash va xulosalash maqsadida	17 o‘rinda jami 17 ta hikmat qo‘llangan
		Dars rukni ostida	4 o‘rinda jami 4 ta hikmat qo‘llangan
2.	2-kitob Baxt fasli	Muallifning fikrini dalillash va xulosalash maqsadida	20 o‘rinda jami 20 ta hikmat qo‘llangan
		Dars rukni ostida	8 o‘rinda jami 8 ta hikmat qo‘llangan
3.	3-Kitob Saodat fasl	Muallifning fikrini dalillash va xulosalash maqsadida	12 o‘rinda jami 12 ta hikmat qo‘llangan
		Dars rukni ostida	5 o‘rinda jami 5 ta hikmat qo‘llangan
4.	Jami	Muallifning fikrini dalillash va xulosalash maqsadida	49 o‘rinda jami 49 ta hikmat qo‘llangan
		Dars rukni ostida	17 o‘rinda jami 17 ta hikmat qo‘llangan

Hikmatlar asarda faqat badiiy bezak emas, balki o‘quvchi uchun hayotiy saboqlar manbaidir. Ular yoshlarni halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat va ilmga intilish ruhida tarbiyalaydi. Masalan, bir o‘rinda Tohir Malik “Imom G‘azzoliy «Mukoyashafat ul-qulub» (Qalblar kashfiyoti) kitoblarida deydilarkim: «Bilki, Alloh bir bandasiga xayr ato etmoqchi bo‘lsa, unga o‘z nafsining qusur va ayblarini ko‘ra oladigan basirat beradi...» [3. 5-bet]

Ushbu hikmat muallif tomonidan har bir inson eng avvalo o‘z nafsi bilan kurashishi, uni yengib, saodatga erishishi zarurligini ta’kidlash maqsadida keltirgan bo‘lib, shu o‘rinda hikmatni o‘z fikr-mulohazalari bilan izohlab, qo‘shimcha ma’lumotlar ham kiritib o‘tadi: “UluG‘ allomaning fikrlariga qo‘shimcha qilib deyishimiz mumkinki, «basiratli do‘st» atamasini kitoblarga nisbatan ham qo‘llasak bo‘ladi. Bu o‘rinda kitoblarning eng uluG‘i, Allohning biz – bandalariga bergan ulug‘ ne‘mati – Qur’oni Karimni, Hadisi Qudsiylarni va Rasulullohning (s.a.v.) sahih hadislarini jamlangan kitobni hamda bularga asoslanib yozilgan donolarning bitiklarini nazarda tutaymiz. Bularni hamisha o‘qib yuruvchi, tushunib, to‘g‘ri anglovchi va o‘qiganlariga amal qilguvchi kishi hech qachon adashmaydi” [3. 6-bet].

Yana bir o‘rinda, “G‘azzoliy hazratlari ta’kid etganlariday, “Ertaga tavba qilaman, solih amallar qilishni boshlayman”, desang, o‘limning sen kutgandan avvalroq kelishini unutma. Ertaga tavba qilishni bugun tavba qilishdan osonroq, deb o‘ylayotgan bo‘lsang, demak, sen xato yo‘lda ekansan”,-deb yozadi. [O.M 3 870-bet] bu o‘rinda Tohir Malik gunohiga tavba qilish orqali haqiqiy hayotga, saodatga erishish demakligi xususida so‘z yuritganda o‘z fikri dalili sifatida qo‘llaydi. Bu o‘rinda Imom G‘azzoliy hikmati “Odamiylik Mulki” asarining badiiy qiymatini oshishiga sabab bo‘lgan.

Muallif asarda biror tarbiyaviy mavzuni yoritish jarayonida o‘z fikri orasida ham Imom G‘azzoliy hikmatlaridan unumli foydalanib, aytilayotgan fikrning yanada ta’sirchanligini oshirishga ham erishgan va kitobxonni fikr yuritishga undagan. “Musibat ko‘rganida kishining ilk so‘zlari: «Allohim, meni sobirlardan qilgin. Musibatning ajriga muvaffaq qil», degan duo bo‘lsa xayrlidir. Biroq, afsuski, ayrim birodarlarimiz musibat toshi ostida ezilib, tillaridan qanday so‘zlar uchayotganini bilmaydilar, Allohga qarshi isyon qiladigan darajaga borib yetadilarki, shu bois ularga sabr tilamoG‘imiz, Imom G‘azzoliy hazratlarining: «Balo faqat gunoh va kufrdan keladi. Musibatlar asl balo emas, ularning ichida sen bilmaydigan yaxshiliklar bordir», degan hikmatlarini eslatish durustdir. Ammo sabr faqat musibatli kundagina kerakmi? Bu savolga har birimizdan javob lozim”[4. 503-bet]

Tohir Malik usbu asarda ko‘plab o‘rinlarda insonlar orasida uchraydigan illatlar xususida so‘z yurotar ekanlar, albatta, Imom G‘azzoliy hikmatlaridan namuna keltiradilar va o‘z fikrlariga singdirib yuboradi: ““Hasad” so‘zi bir illatni anglatgani bilan uning eshiklari ko‘p. G‘azzoliy hazratlari shulardan yettitasini sanaganlar: kibr, o‘ziga rom bo‘lish, yaxshi ko‘rgan narsalarini yo‘qotishdan qo‘rqish, martabaga muhabbat, tuban nafs va baxillik. Hasad uyg‘otuvchi ashaddiy sabablardan biri adovat, ikkinchisi esa yaxshilikni ko‘rolmaslikdir”[5. 253-bet].

Muallifning Imom G‘azzoliy hikmatlariga shunchaki hurmat ko‘zi bilan emas, mehr-muhabbat bilan qaragani har bir misolda ko‘zga tashlanadi: “Xulq haqida to‘laonli tasavvur hosil qilish uchun to‘rtta narsani nazardan qochirmaslik kerak,-deb ta’kidlaydilar G‘azzoliy hazratlari. - Birinchisi – yaxshi va yomon fe‘l. Ikkinchisi – yaxshi va yomon fe‘lni qilishga qodirlik. Uchinchisi – yaxshi va yomon fe‘ldan xabardorlik. To‘rtinchisi - nafsning holati bo‘lib, nafs doimo yo yaxshilikka yoki yomonlikka moyil bo‘ladi. Bu ikki ishdan biriga erishish unga oson kechadi”[3. 48-bet].

Xulosa qilib aytganda, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asari – ma’naviy-ma’rifiy asar bo‘lib, unda Imom G‘azzoliy hikmatlari muhim o‘rin tutadi. Muallif hikmatlarni badiiy tilda talqin qilib, o‘quvchini fikrlashga, mulohaza yuritib, bayon etilayotgan tarbiyaviy mavzu yuzasidan xulosa chiqarishga, ma’naviy poklanishga undaydi. Natijada asar o‘quvchida chuqur axloqiy taassurot qoldiradi va uni yaxshilik sari chorlaydi. Asarning 3 faslida jami 66 o‘rinda Imom G‘azzoliy hikmatlaridan unumli foydalanilgani Tohir Malikning “Odamiylik Mulki” asari badiiy durdona asar ekaniga ishoradir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат ул-қулуб. Мутаржим Миразиз Абзам.
2. Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун-нафс. Мутаржим. – Рашид Зоҳид.
3. Маликов Тоҳир . Одамийлик мулки. 1-китоб. – Т.: Sano standart, 2018.
4. Маликов Тоҳир . Одамийлик мулки. 2-китоб. – Т.: Sano standart, 2018.
5. Маликов Тоҳир . Одамийлик мулки. 3-китоб. – Т.: Sano standart, 2018.
6. Toshpulatova, D. I. (2023). Views on the poetic features of proverbs in Uzbek and English folklore. Oriens Journal.
7. researchgate.net+9azkurs.org+9samxorfil.uz+9scribd.com